

O'QITUVCHI FAOLIYATINI PRAGMATIK YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna

*Pedagogika fanlari doktori, Namangan
davlat pedagogika instituti professori.*

Annotatsiya: maqolada ona tili o'qituvchisining ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahorati, zamonaviy hisoblanuvchi pragmatik yondashuv jarayonida ona tili o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan talablar hamda pedagogik faoliyatda antroposentrik yondashgan holdagi ta'lim usullari masalalari yoritiladi.

Tayanch so'zlar: o'qituvchining ma'naviy qiyofasi, kasbiy mahorat, ona tili o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan talablar, pragmatik va antroposentrik yondashuv, ta'lim usullari.

IMPROVING TEACHER'S ACTIVITY BASED ON PRAGMATIC APPROACH

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna

*Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor at Namangan State Pedagogical Institute*

Abstract: This article discusses the moral image, intellectual potential, and professional skills of the mother tongue teacher, the requirements placed on the personality of the teacher in the context of the modern pragmatic approach, and the issues related to anthropocentric teaching methods in pedagogical activities.

Keywords: teacher's moral image, professional skills, requirements for the mother tongue teacher's personality, pragmatic and anthropocentric approaches, teaching methods.

УЛУЧШЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Собирова Махбуба Юсупджановна

*Доктор педагогических наук,
профессор Наманганского государственного педагогического института*

Аннотация: В статье рассматриваются моральный облик, интеллектуальный потенциал и профессиональные навыки учителя родного языка, требования, предъявляемые к личности учителя в рамках современного прагматического подхода, а также вопросы применения антропоцентрического подхода в педагогической деятельности и методов обучения.

Ключевые слова: моральный облик учителя, профессиональные навыки, требования к личности учителя родного языка, прагматический и антропоцентрический подходы, методы обучения.

KIRISH

Mamlakatimiz yangi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bosqichiga chiqayotgan ayni paytda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, zamon talabiga javob beradigan yuksak qobiliyatli, har tomonlama bilimli, zamonaviy ilm-fanni o'rgangan va ijodiy faol bo'la oladigan yoshlarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Fan-texnika asri va jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-siyosiy hayot ona tilidan o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'ymoqda. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon tsivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "Har bir oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish[2]" ta'kidlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim talabalarini har tomonlama komil inson va yetuk mutaxassis etib shakllantirishga qaratilgan asosli ilmiy-nazariy fikrlar ko'plab o'zbek pedagog olimlari tomonidan qayd etilgan. Jumladan, pedagog olim N.M.Egamberdiyeva [3] bo'lg'usi mutaxassislarning komillikka erishuvida mashg'ulotlardagi innovatsion yondashuvlarni bosh masala qilib qo'yadi. Prof. N.Erkaboyeva esa ta'lim sifatini nazorat qilish hamda boshqarishning nazariy va tashkiliy metodik asoslarini bosh masala qilib qo'yadi va ularning kasbiy fikrlashlaridagi omillardan biri til va nutq kompetentligi ekanligini ta'kidlaydi.[4] Metodist olima M.Sobirovaning fundamental tadqiqotlarida samarali kasbiy mutaxassislikni rivojlantirishda ta'limdagi yondashuvlarning roli va ahamiyati, yondashuvlarning ta'lim sifatini oshirishdagi nazariy va amaliy jihatlari keng yoritib beriladi. [5,6,7,8,9,10]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ona tili o'qituvchisining ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahorati, zamonaviy hisoblanuvchi pragmatik yondashuv jarayonida ona tili o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan talablar hamda pedagogik faoliyatda antroposentrik yondashgan holdagi ta'lim usullari masalalari yoritiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Kuzatishlar, ish tajribalarimiz hamda tahlillar bugun ta'limda, xususan, til ta'limida tub islohotlar amalga oshirilyapgani, o'qitishdan ko'zlangan bosh maqsadga erishishning eng optimal va yangi yo'llarini topish hamda joriy qilish borasida ko'lamli ishlar olib borilyapganini ko'rsatmoqda.

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi. Hozirgi zamon jamiyatida ro'y berayotgan yangilanishlar ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyatidagi xususiyatlarni o'zgartirish zarurligini belgilaydi. Muloqotning yangi vaziyati – bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeyini, pedagogika faniga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. Bugungi kun o'qituvchisi o'z nuqtayi nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali zamonaviy yondashuv asosida ochilib, mukammallashib boradi. Bizningcha, zamonaviy hisoblanuvchi antroposentrik va pragmatic yondashuv jarayonida o'qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo'yilishi maqsadga muvofiqdir:

–jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetish va bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olish;

–ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan muntazam xabardor bo'lish;

–o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanish;

–imlo qoidalarini puxta bilish, husnixat bilan yoza olish malakasiga ega bo'lish;

–adabiy til qoidalarini yaxshi bilish, sheva ta'sirini nazarda tutish;

–ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish;

–pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etish;

–ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lish;

–yuksak darajadagi pedagogik mahorat, ya'ni kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olish.

O'qituvchi, xususan, ona tili o'qituvchisi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi; b) nutqning aniqligi; v) nutqning ifodaviyligi; g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning no'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan xoli bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; d) nutqning ravonligi; j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqolalar, matallar va ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

Keyingi yillarda, ya'ni XXI asr boshlaridan o'qitishda, xususan, til ta'limini antroposentrik va pragmatik tamoyillar asosida berishga oid tendensiya kuchaydi. Ona tili ta'limi mazmunini yangilash, ta'limni takomillashtirish, o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirishda badiiy matn imkoniyatlaridan keng foydalanish masalalari ko'tarildi. Bular:

umumta'lim maktablaridagi o'quvchilar til kompetentligining joriy holatini tahlil qilish;

kompetensiyaviylikka asoslangan til ta'limida pragmatik kompetensiyaning o'rni va ahamiyatini asoslash;

fonetik, leksik birliklarni badiiy asarlarda tahlil qilish orqali o'quvchilar pragmatik kompetensiyasini o'stirish yo'llarini ko'rsatish;

badiiy asarlar grammatik birliklari tahlili pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish omili ekanligini asoslash;

matnlarni uslubiy tahlili orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani takomillashtirish texnologiyasini ishlab chiqish.

Ona tili ta'limida adabiyot fani bilan integratsiyani yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlariga e'tibor qaratishdan iborat bo'lgan.

Zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik yo'nalishi nazariyasi diqqat markazida lisoniy omillar emas, balki inson faoliyatidagi til hodisalari yotadi. Demak, endi tilshunoslikning barcha bo'limlarida inson nutq subyekti sifatida o'rganiladi. Zamonaviy tilshunoslikning tushuntirish tendensiyasining asosiy vazifalaridan biri T.N.Xomutova tadqiqot ishida izohlaganidek, fanning rivojlanish darajasining o'sishini ta'minlab, ko'plab aniq tadqiqot usullarining paydo bo'lishini va insonga tilning aniq xususiyatlarini o'rganishiga zamin yaratadi. Jamiyatda insonning o'rnini qayta tahlil qilib, o'rganish antroposentrizmning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslikning o'ziga xos xususiyati antroposentrizm yoki olam va dunyoda sodir bo'layotgan barcha hodisalarni boshqarayotgan inson ekanligidir.

Yangi asrga kelib, antroposentrik yo'nalishni gumanitar fanlarning yetakchi yo'nalishlaridan biri deb hisoblash mumkin. Tilshunoslikdagi antroposentrik yo'nalish inson mohiyatini til bilan chambarchas bog'lab tahlil qiladi.

Bugungi kun o'qituvchisi, xususan, til ta'limi o'qituvchisi ta'lim samaradorligiga erishishda o'qituvchining o'quvchilar bilan, o'quvchilarning o'quvchilar bilan o'zaro sherikligi qanday o'rin tutishini; til ta'limi, birinchi navbatda, o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish orqali ularda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirish vositasi ekanini chuqur anglashi kerak. O'qituvchining o'zi o'qitayotgan fan asoslarini mukammal bilishi, bilganlarini o'quvchilariga yetkaza olish darajasigina emas, hatto uning o'zini tutishi, nutqi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. M.V.Klarin bu haqda shunday deydi: "O'qituvchi tomonidan qo'llanadigan pauzaning davomiyligi singari "mayda narsa" o'quv dialogining, sinfdagi o'zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli ta'sir o'tkazadi." Psixolog-metodist

Y.V.Korotayeva bu mavzuda shunday yozadi: “Agar «javobni kutuvchi pauza» o'qituvchi tomonidan uch sekunddan besh sekundgacha cho'zilsa, mulohazalar soni ortadi, javoblarning davomiyligi ko'payadi, o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchlari ko'tariladi, ularning mulohazalarida dalillar kuchayadi, muhokamaga o'qish darajalari unchalik yuqori bo'lmagan o'quvchilar ham qo'shila boshlaydi, bolalar orasidagi o'zaro hamkorlik kuchayadi[9].”

Pedagogik faoliyatda antroposentrik yondashgan holda kommunikativ munosabat usullaridan to'g'ri foydalanib, o'quvchilar ongiga quyidagicha ta'sir etilsa, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar yaxshi rivojlanadi:

- yonidan o'tib ketayotganingizda o'quvchi salomiga baland ovozda alik olish bilan so'rashish;
- ularni ismi bilan chaqirish;
- bir varaq qog'ozga “Rahmat”, “Yashavor, azamat”, “Zukko qiz”, “Balli” yoki boshqa shunga o'xshash olqish va rag'bat ma'nosidagi so'zlarni yozib, mashg'ulot davomida shu so'zlarga munosib bo'lgan o'quvchining stoli ustiga qo'yish;
- sinfxonada, yo'lakda, kutish yoki dam olish uchun ajratilgan katta xonada, oshxonada o'quvchilarning faoliyati natijalarini ilib qo'yish;
- o'quvchilarning o'sish sur'ati ko'rinishi uchun har hafta va har oyda ma'lumotlarni yangilab turish;
- vaziyatga qarab oyda bir marta yoki har chorakda barcha o'quvchilar bilan dam olish maskanlariga chiqish;
- sinfxonaning har bir partasi ustiga o'quvchining ismi sharifi yozilgan taxtachani ildirish (o'quvchilarga o'z ismini ko'rish va kerakli insonligini his etish yoqqani uchun);
- faoliyati u qadar sezilmayotgan o'quvchilarga diqqat qaratish, muammolari haqida so'rash, ularni ham faollikka chorlash, ular uchun maxsus mukofotlar (daftar, ruchka va b.) joriy qilish;
- hamma o'quvchilarga biron bir muhim masala haqida aytish va uni hal qilish bo'yicha o'z takliflarini berishni so'rash.

Insoniyat bilim olish va bilim berishning shunday bosqichiga yetdiki, endilikda necha ming yillardan buyon foydalanib kelinayotgan o'qitish usullari yetarli bo'lmay

qoldi. Bugun o'qitishning turli-tuman innovatsion ko'rinishlari yuzaga kelmoqda. Davr bilim berish, bolalarda muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirishning o'zgacharoq yo'llarini topishni talab etmoqda. Ta'lim tizimi va uni yo'lga qo'yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtlarda dunyo miqyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini taqozo etmoqda.

Til ta'limini antroposentrik yondashuv asosida tashkil qilishda "Yaxshidan bog' qoladi" usuli samarali hisoblanib, ezgu ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishda, hamkorlikni yo'lga qo'yishda, guruhlar bilan ishlashda ko'proq qo'l keladi. Talaba amaliy mashg'ulotda guruhlariga bo'linib, jamoalariga mos nom tanlashadi va ushbu nomni oq qog'ozga yozishadi. Guruhning faol ishtiroki uchun auditoriya doskasiga bittadan yashnab turgan daraxt tasviri yopishtiriladi. Istagan talaba, istagan vaqtida, istagan fikrini aytishi mumkinligi ta'kidlanadi. Bu o'rinda muhim fikrlarning 3 nafardan iborat hay'at a'zolari tomonidan yozib olinishiga ulgurish zarur bo'ladi. Bu usulning diqqatga loyiq jihati shundaki, unda talabalar o'zaro birgalikda ishlashga, to'g'ri yoki noto'g'ri fikr aytishidan qat'i nazar, har bitta qatnashchining fikrini eshitishni o'rganishadi. Shuningdek, guruh a'zolarining bir xil baholanishi talabalarda jamoatchilik, hamkorlik ruhini shakllantirishga xizmat qiladi. Mashg'ulot nihoyasida oppoq vatmanda yoki doskada ajoyib bog' tasviri paydo bo'ladi. Daraxtlar soni guruhlar bahosini belgilaydi. Ayni shu jarayonda mehnatkash, g'ayratli, chaqqon insonlarning bog' yarata olishi, go'zallikni hosil qilishi, ona tabiatni asrab-avaylashi, obod qilishi kerakligi talabalar ongiga singib boradi.

Ta'lim sohasidagi dolzarb vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, talabalarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni fan asoslarini chuqur egallagan bilimli, kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis qilib tarbiyalash o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. **"Strategiyam"** usuli ham mana shu ta'kidlangan fazilatlarni shakllantirishda qo'l keladi. Slayd orqali yoki ko'rgazmali holda alifbo tartib raqamiga talaba e'tibori tortiladi. Talabalar yakka shaklda ishlaydilar va navbatma-navbat o'zlarining ismlari bosh harfini oladilar. Bu harflar orqasida quyidagi 3 ta savol qo'yiladi:

1. Ismingiz ma'nosini izohlang. Ota-onangiz nima uchun sizga shunday ism qo'yishgan?
2. Siz shu kungacha shu ismga mos nima ish qildingiz va qanday yutuqqa erishdingiz?
3. Tanlangan harf orqasida yaqinda o'tilgan yoki ancha oldin o'tilgan mavzularga oid savol va topshiriqni bajaring.

¹ Aa	² Bb	³ Dd	⁴ Ee	⁵ Ff	⁶ Gg	⁷ Hh
⁸ Ii	⁹ Jj	¹⁰ Kk	¹¹ Ll	¹² Mm	¹³ Nn	¹⁴ Oo
¹⁵ Pp	¹⁶ Qq	¹⁷ Rr	¹⁸ Ss	¹⁹ Tt	²⁰ Uu	²¹ Vv
²² Xx	²³ Yy	²⁴ Zz	²⁵ O'o'	²⁶ G'g'	²⁷ Shsh	²⁸ Chch

Savol va topshiriqqa tezkor to'g'ri javob berish kerak. O'ylash uchun vaqt berilmaydi. Uchala savolning javobida tutilgan talaba 1-tomonga, javobning ma'lum qismini ayta olgan talaba 2-tomonga, to'liq javob berib, kursdoshlarini havaslantirgan talaba 3-tomonga o'tadi. 3-guruhdagi talabalarga yuqori reyting ballari qo'yiladi, 1- va 2-guruhni ulardan o'rnak olishga chorlanadi. 1- va 2-guruh bilan qo'shimcha tarzda ishlash kerakligini, ularning mustaqil ta'limiga ham nazoratni kuchaytirishni o'qituvchi o'ziga reja qilib oladi.

“Strategiyam” usuli quyidagi samaralarni beradi:

- talabaning mavzularni qay darajada o'zlashtirib borayotgani aniqlanadi;
- erishgan muvaffaqiyatlarini tengdoshlariga aytish imkonini tug'diradi;
- kurdoshlarining yutuqlaridan xabardor bo'ladi;
- kelgusida o'zi ham tengdoshlaridek yutuqlarga erishish uchun o'z oldiga maqsad qo'yadi, rejalar tuzadi;
- og'zaki nutqi rivojlanadi.

XULOSALAR

Til ta'limini pragmatik yondashuv asosida tashkil qilishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan interfaol usullar quyidagi natijalarni beradi:

- barcha ta'lim oluvchilarning ishtirok etish imkoniyati hosil qilinadi;
- o'tilgan materialning yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi;

– pragmatikk yondashuv asosida tashkil qilinadigan usullar talabalarga o'zlarini o'zlari to'g'rilash imkonini ham beradi;

– talabalar o'zlari beradigan javobda oldingilarni takrorlamaslikka, muammoning yangi qirralarini ochib berishga intilishadi;

badiiy asarlar matnidagi morfologik, sintaktik birliklar tahlili vositasida grammatik shakl va grammatik ma'no uyg'unligini his etish qobiliyati rivojlangan. Bu orqali yoshlarning nutqiy vaziyatlarni his qilish va yaratish layoqati takomillashadi;

– adabiy asarlarda uchraydigan turli til uslublariga mansub jumla, ifoda, matnlarni o'rganish orqali til sathlari bo'yicha birliklarni maqsad hamda vaziyatga ko'ra o'z o'rnida ishlatilganligini tahlil qila olish malakasi shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 01.15.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. "Xalq so'zi" gazetasi. 2017-yil, 21-aprel, № 79 (6773)
3. Egamberdiyeva N.M. Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B.363.
4. Erkaboyeva N. Yangilangan fikrlarning mohiyati va uning ustuvor yo'nalishlari. // Xalq ta'limi, 2005. № 6.– B. 19-20.
5. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
6. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.z o.o."iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> str. 98-105
7. Sobirova, M. (2020). The role of the family in the development of the integration process in science and education. "A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal" (<https://journalnx.com/papers/20151362-the-integration-process.pdf>) impact faktorga ega bo'lgan DOI raqamli jurnali. 2020 y. 18-19 uyun. – B. 1161-1166.
8. Sobirova, M.Y. (2024). Ona tilining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 104-110.
9. Yusupdjanovna, S.M. (2024). Innovation-integration approach to developing students' language and communicative competence. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 43-50.

10. Makhbuba Sobirova, Matlubakhon Karieva (2024). The Role of National values in Education. <http://journal.nun.uz> Social sciences. O'zbekiston milliy Universiteti xabarlar, 2024, [1/9] ISSN 2181-7324. B-178-180.
11. Sobirova, M.Y. (2024). Qadriyat – insonni rag' batlantiruvchi kuch. "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2024-yil, 2(10)-son. 28-32-betlar. ISSN 2181-3787 E-ISSN 2181-3795
12. Sobirova, M.Y. (2024). Innovation-integration approach to the development of speaking competence of student.s <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/> ETHIDPIAN INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH. Volume: 11, Issue 05, May-2024 SJIF 2019: 4.702 2020: 4.737 2021: 5.071 2022: 4.919 2023: 6.980 2024: 7,662
13. Sobirova, M.Y. (2024). Development of oral speech competence of students. <http://www.academicpublishers.org/> International journal of artificial intelligence (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 03, 2024. Published Date: - 04-06-2024.
14. Sobirova, M.Y. (2024). Enhancing the mechanisms and factors of improving the literacy of upper school students based on an innovative approach. <https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/810>. European journal of higher education and academic advancement. VOL.1NO.8(2024) 3 aug 2024, - B 21-28 ISSN: 3032-1123 (Global Impact factor).
15. Кубрякова Е.С. Парадигмы научного знания в лингвистике и ее современный статус // Известия АН. Серия литературы и языка, 1994. – Т. 53, № 2. – С. 3–15.
16. Хомутова Т.Н. Научные парадигмы в лингвистике // Вестник Челябинского государственного университета, Филология. Искусствоведение. Вып. 37. 2009. – № 35 (173). – С. 142–151.
17. Mirzayeva F.E. Bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo madaniyatni rivojlantirish. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Namangan, 2019.
18. Коротаева Е.В. Особенности речевого взаимодействия учителя и учащих. – М. // Русский язык в школе. 2001, № 1, с.7